

1950–70-YILLAR O‘ZBEKISTON BASTAKORLIK IJODIYOTI XUSUSIDA



Madinaxon Turg‘unboyeva

Tayanch doktoranti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-07>

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1950–1970-yillar o‘zbek bastakorlik ijodiyotida rivoj topgan janrlar, xususan, ulardagi mavzular ko‘lami hamda uslubiy tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, Imomjon Ikromov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, G‘anijon Toshmatov kabi hassos bastakorlar ijodiy yutuqlarining qisqacha sharhi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bastakor ijodiyoti, kompozitor ijodiyoti, qo‘shiq, ashula, yalla, musiqali drama, maqom yo‘llari, xalq kuylari va qo‘shiq-lari.

Аннотация: В данной статье описываются жанры, сложившиеся в узбекском бастакорском творчестве 1950–1970-х годов, в частности, объем их тематики и методические принципы. А также представлен краткий обзор творческих достижений таких известных бастакоров, как Имомжон Икромов, Саиджон Калонов, Комилжон Жабборов, Фахриддин Садиков, Ганижон Ташматов.

Ключевые слова: бастакорское творчество, композиторское творчество, песня, ашула, ялла, музыкальная драма, маком, народные мелодии и песни.

Abstract: This article describes the genres that developed in Uzbek bastakor creativity in the 1950s–1970s, in particular, the scope of their themes and methodological principles. Also, briefly overview of the creative achievements of famous bastakores such as Imomjon Ikromov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Fakhriddin Sodiqov, G‘anijon Toshmatov is presented.

Key words: bastakor creativity, copositional creativity, song, asula, yalla, musical drama, maqom, folk tunes and songs.

Kirish:

XX asr tarix zarvaraqlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, unda muhrlangan har bir davr o‘zining jamiyat taraqqiyotidagi muhim voqea-hodisalari va ijodiy izlanishlarining boyligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, aynan, 1950-yillar madaniy hayotiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, boshqa san‘at turlari kabi o‘zbek musiqa san‘atining barcha jabhalari sezilarli darajada rivojlanish, yuksalish davrini boshidan o‘tkazganining guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, Yevropa an‘analari asosida shakllangan o‘zbek kompozitorlik ijodiyoti, xususan, musiqali drama, opera kabi janrlarda ahamiyatga molik asarlar dunyoga keldi.

1950–1970-yillari o‘zbek kompozitorlik ijodiyotidan tashqari milliy musiqiy tafakkur mahsuli hisoblanmish o‘zbek bastakorlik ijodiyotida ham bir qancha hassos bastakorlar sermahsul ijod etib, xalq ko‘nglidan joy oluvchi dilbar navolar, dilkash qo‘shiq va ashulalar yaratdilar. Alalxusus, To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Mahmudjon Mirzayev, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatovlarning ijod namunalari nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni mamlakatlarda ham o‘z muxlislariga ega bo‘ldi.

Tahlil va natijalar:

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bastakorlar ijodining aksariyat qismini davr siyosiy ruhini aks ettiruvchi vatanparvarlik, jasurlikni ulug‘lovchi qo‘shiq-lar tashkil etadi. Bunday mavzudagi qo‘shiq-larni deyarli barcha bastakorlar ijodidan topish mumkin. Chunonchi, T. Jalilovning “Ey, hur Vatanim”, “Aziz Vatan”, K. Jabborovning “Diyorimsan”, S. Kalonovning “Vatan sevgisi”, “Vatan taronasi”, I. Ikromovning “Paxtakorlarga”, “Davri davronim go‘zal”, “Vatan mehri”, F. Sodiqovning “Vatan marshi”, “Jahon bo‘ylab bir ovoz yangrar”, “Vatan o‘xshar

quyoshga”, N. Hasanovning “Ozod Vatan”, “Bor bo‘lsin tinchlik” va boshqalar shular jumlasidandir. Biroq, ular orasida Imomjon Ikromovning Vatan mavzusidagi qo‘shiqlari ohanglarning rang-barangligi, jo‘shqinlik hamda zavq-shavq ufurib turgani bilan alohida ajralib turadi. Xususan, atoqli bastakor ijodining eng salmoqli qismini mehnatkash xalq va Ozod vatanni madh etuvchi qo‘shiq va ashulalar (100 dan ortiq) egallaydi. Bular “Paxtakorlarga”, “Olqish”, “Mirzacho‘l qahramonlariga”, “Yangi yer taronasi”, “Vatan mehri”, “Aziz Vatan”, “Komsomollar marshi” kabi qo‘shiqlardir.

Shu o‘rinda Imomjon Ikromov ijodi haqida so‘z borar ekan, alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bastakor she’riyatning zukko mushtariysi edi. Shoir Po‘lat Mo‘min intervyularidan birida bastakor haqida ushbu fikrlarni bildiradi: “Usta bilan ishlash maroqli, ammo qiyin. Usta she’rda so‘zlar musiqaviy bo‘lishini, yangi bo‘lishini, yakun bo‘lishini talab qiladilar” [1.16-b]. Darhaqiqat, bastakor doimo she’riy matnning asl mag‘uzini chaqib, uning tub ma’nosidan kelib chiqqan holda musiqalar bastalagan. Uning chuqur mushohadaliligi, sinchikovligi va talabchanligi satirik mavzudagi she’rlarga ham qo‘l urishga undadi. Hajviy mavzulardagi she’rlarning tub mohiyatini anglagan holda “Siz ham indamang”, “Takasaltang” va “Uchradim” qo‘shiqlarini yaratadi. Ular negizida kishilar xulq-atvoridagi yomon illatlarni yo‘qotish, halol mehnat qilish, el-yurt uchun foydasi tegadigan inson bo‘lish kabi g‘oyalar ilgari surilgani bois o‘z davrida anchagina mashhur bo‘lgan. Bundan tashqari, I. Ikromovning “Tez tering”, “Sher yigit”, “Daryosi ko‘p, dardga davo yali-yali” qo‘shiqlari musiqiy tilining soddaligi, yoqimliliigi va dilga yaqinligi tufayli xalq yallalariga aylanib ketgan.

O‘tgan asrning 50-yillarida bastakorlar tomonidan vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy va madaniy hayoti, his-tuyg‘ulari, orzu-umidlarini tarannum etuvchi qo‘shiqlar ham birin-ketin yaratildi. San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Ravshan Yunusov ta’kidlaganlaridek: “...xalqchil, keng ommani kundalik ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qodir zamonaviy o‘zbek qo‘shiqchiligi atoqli bastakor To‘xtasin Jalilov sa’y-harakatlari orqali maydonga kirib keldi” [2.60-b]. Ustoz san’atkor izidan yurgan K. Jabborov, F. Sodiqov, I. Ikromov, N. Hasanov, S. Kalonov, M. Mirzayev, G. Toshmatov ijodi tufayli o‘zbek qo‘shiqchiligi ishq-muhabbat, orzu-umidlar, so‘lim tabiatni madh etuvchi yangi nodir durdonalar bilan boyidi.

Rus musiqasining ta’siri ostida “marsh va vals janrlarining belgilari, yangicha ohang tuzilishlari o‘zbek musiqasiga jadal kirib keldi” [3.68-b]. Darhaqiqat, bastakorlik ijodiyotida birinchilardan bo‘lib, Hamza Hakimzoda Niyoziy, To‘xtasin Jalilov va Yunus Rajabiy o‘z qo‘shiqlarida marsh va vals janrining ritm, kuy-ohang xususiyatlaridan keng foydalanishgan bo‘lsa, Faxriddin Sodiqov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov va Saidjon Kalonov bu yo‘nalishning yanada taraqqiy etishiga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Saidjon Kalonov ijodida marsh va vals janr xususiyatlarida yaratilgan asarlar talaygina. Bunga “Hormang qizlar”, “Yigit qo‘shig‘i”, “Chaqqon ter” kabi qo‘shiqlari, xalq cholg‘u orkestri uchun “Mashq pyesasi”, afg‘on rubob va orkesrt uchun “Qo‘shiq-raqs” hamda nay va orkestr uchun “Farg‘ona tongi” cholg‘u kuylari yorqin misol bo‘la oladi.

Bundan tashqari, S. Kalonov bastakorlik ijodida milliy ohanglariga yo‘g‘rilgan asarlari salmoqli o‘rinni egallaydi. Uning “Farg‘ona tongi”, “Armug‘onim”, “Gul mavsumi” kabi kuylari, Navoiy g‘azaliga “Topmadim”, Nodira so‘ziga “Ey sarvi ravon”, S. Zunnunova she’riga “Yor kezar”, T. To‘la so‘ziga “Dilnavozim”, Habibiy she’riga bastalangan “Kuyla, dilkash dutorim” singari qo‘shiq va ashulalari o‘zining yoqimli ohangi, so‘z va musiqaning o‘zaro mutanosibliigi bilan xalq ko‘nglidan chuqur joy olib, boqiy navolarga aylandi.

Qo‘shiq va ashula uchun mos she’riy matn tanlash, ushbu matnni kuyga to‘g‘ri bog‘lay olish bastakorlik amalining muhim xususiyati hisoblanadi. 50–70-yillarda ijod etgan mohir bastakorlar she’riyatning chuqur mazmun-mohiyatini anglagan holda xalq kuylari, maqom yo‘llari va yangi taronalarga munosib she’r bog‘laganlar. Ular ham mumtoz, ham zamonaviy shoirlar misralaridan birdek foydalanishgan. Chunonchi, Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Furqat g‘azallariga Hamza, H. Olimjon, Mirtemir, H. G‘ulom, S. Abdulla, Habibiy, Charxiy, T. To‘la, P. Mo‘min,

S. Zunnunova, M. Qoriyev, E. Vohidovlarning she'rlariga ko'plab qo'shiq hamda ashulalar yaratdilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, o'zbek kompozitorlik ijodiyoti sezilarli darajada rivojlandi. Uning taraqqiy etishi o'z navbatida bastakorlik ijodiyotiga ham ta'sirini o'tkazmay qolmadi, xususan, ayrim bastakorlar kompozitorlik ijodiga mansub janrlarda ijod qilgan bo'lsa, keyinchalik bir qator kompozitorlar asarlarida bastakorlik tamoyillari sezila boshladi. Shuningdek, kompozitor va bastakor hamkorligida bir qancha opera va musiqali dramalar sahnalashtirildi. Bular, T. Sodiqov, B. Zeydman, Y. Rajabiy, D. Zokirov "Zaynab va Omon" operasi, "Muqimiy" (S. Abdulla pyesasi, T. Jalilov va G. Mushel musiqasi), "Aziz va Sanam" (A. Bobojonov pyesasi, K. Otaniyozov va L. Stepanov musiqasi), "Farg'ona hikoyasi" (H. G'ulom pyesasi T. Jalilov va B. Zeydman musiqasi), "Alisher Navoiy Astrobodda" (I. Maqsumov pyesasi, Y. Rajabiy va S. Jalil musiqasi) kabi musiqali dramalaridir. Mazkur asarlarda o'zbek bastakorlari sahna asarlarining badiiy mazmuni, qahramonlar obrazi, ularning ruhiy kechinmalaridan kelib chiqqan holda maqom yo'llari, katta ashula, xalq kuy va qo'shiqlari, shuningdek, o'z mualliflik namunalaridan mohirona tanlab bergan, kompozitorlar esa ularni orkestrga moslashtirgan. "... o'zbek bastakorlari va rus kompozitorlari bilan hamkorlikda qaytadan ishlash usuli va simfonik orkestrga moslash orqali yangi spektakllar yaratgan" [4.92-b]. Bu esa xalqqa tanish ohanglar orqali Yevropa musiqiy janrlarini tushunish, idroklash va tillardan tillarga o'tib, qalblarga jo bo'lishiga yordam bergan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Sahnaviy asarlarga musiqa bastalash borasida zabardast bastakor To'xtasin Jalilovning shogirdi sozanda va bastakor Komiljon Jabborov ijodiy merosiga to'xtalib o'tish lozim. Uning "Gulfiya ustidagi nur" (S. Tilla pyesasi) spektakliga, S. Hayitboyev bilan hamkorlikda "Nodira" (X. Razzoqov pyesasi) musiqali dramasiga, dramaturg T. Qosimovning "Dilnavoz" va "Cho'lponoyning allasi" telespektakllariga yaratgan musiqalari san'atkorning Andijon viloyati musiqali drama teatrida ishlagan kezaridagi to'plangan amaliy tajribasi hamda chuqur kuzatuvlari mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Atoqli bastakorning ijodida sahnaviy asarlarga yaratilgan musiqalardan ko'ra, qo'shiq va ashulalar yetakchi o'rinni egallaydi. "K. Jabborov qo'shiqlarining ijodiy muhim tomonlaridan biri, bu – ularning kuy-ritm jihatdan tuzilishlaridir. Shu ma'noda bastakor qo'shiqlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Original kuy-ohangli qo'shiqlar.

2. Musiqiy merosning muayyan namunalariga asoslangan qo'shiqlar" [5.54b].

Bu taqsimlanish bastakor yaratgan ashulalarga ham tegishlidir. Original kuy-ohangli qo'shiqlariga "Diyorimsan" (Habibiy), "Xush kelding" (R. Parfi), "Vatan" (Uyg'un), o'zbek musiqa merosi asosida yaratilgan asarlarga esa "Yetmasmidim" (Fuzuliy), "Tokay" (Uvaysiy), "Assalom" (Furqat), "Toshkent piyolasi" (H. Xo'jayev) ashulalari yorqin misol bo'ladi.

Xususan, hassos bastakorning Navoiy g'azallariga "Mubtalo bo'ldim sanga", "Ey pari", Habibiy so'zlariga "Diyorimsan", "Hushyor yor", "Bahor qo'shig'i", K. Otaboyev she'riga "Lolaxon", H. Xo'jayev she'riga "Toshkent piyolasi", T. To'la so'zlariga "Salom", "Birma-bir", "Ko'rgim kelur", E. Vohidov she'riga "Kel", H. Muhammad so'ziga "Muhabbat gulshani" kabi qo'shiq va ashulalari millionlab muxlislar e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Ko'rilayotgan davrda mamlakatimizda yuksak mumtoz namunalarni jonlantirish, yangidan hayot bag'ishlash hamda ravnaq topishiga qaratilgan bir necha ibratli ishlar amalga oshirildi. O'zbek musiqa merosining to'plovchisi, maqom mulkining sultoni Yunus Rajabiy tomonidan 1955–1959-yillar mingga yaqin turli janrdagi o'zbek kuy-qo'shiqlari, Buxoro Shashmaqomi, Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari, katta ashulalar va ayrim XX asr bastakorlari asarlari o'rin olgan 5 jildlik "O'zbek xalq muzikasi" to'plamining nashr etilishi, 1966–1975-yillar 6 jildli yangi tahriri va uning to'liq shakli gramplastinka yozuvining tayyorlanishi olamshumul voqealardan biri bo'ldi. Bularning barchasi bastakorlar ijodiga ham ijobiy ta'sir o'tkazmay qolmadi. Maqom yo'llari qonuniyatlari, ijroviy uslublarini chuqur anglagan hamda undan ilhom manbayi sifatida mohirona foydalangan bastakorlardan biri benazir sozanda, zabardast bastakor va jonkuyar muallim Faxriddin Sodiqovdir. Uning "Vatan marshi", "O'zbekcha vals", "Gulnor", "Ishq" kabi cholg'u

kuylari, “Ey chehrasi tobonim” (Muqimiy so‘zi), “Bir go‘zal” (Mirtemir she‘ri), “Oltin ijodkorlar” (P. Mo‘min she‘ri), “O‘yna gulim” (N. Xolxo‘jayeva she‘ri), “Yorim to‘qir xonatlas” (A. Bobojon she‘ri) singari qo‘shiq, ashulalari va boshqa o‘nlab noyob musiqiy asarlari ohangdorligi hamda ta’sirchanligi bilan tinglovchilar qalbidan chuqur joy oldi.

Serqirra ijodkor yaratgan asarlarining tub negizida o‘zbek xalq musiqasi va maqomlar yotadi. Biroq, “Faxriddin Sodiqov bunyod etgan aksariyat kuy-ohanglar o‘ziga xos, farqli, aniqrog‘i “mualliflik” sifatleri bilan yaqqol ajralib turadi. Bu borada F. Sodiqovni yangi zamonning eng ilg‘or kashfiyotchi-bastakori deyishga haqlimiz” [6.63-b]. “Yor bilib” (S. Zunnunova so‘zi), “Jahon bo‘ylab bir ovoz yangrar” (Q. Muhammadiy she‘ri), “Gullar vodiysi” (T. To‘la so‘zi), “Zarafshon” (A. Po‘lat she‘ri) kabi qo‘shiq va ashulalar so‘zimizning yorqin isboti bo‘la oladi.

1960–1970-yillarda bastakorlik ijodiyoti o‘zbek musiqa merosiga mualliflik jihatdan yondashish va yangi bastakorlik tamoyillarining yaratilishi bilan ahamiyatlidir. O‘z ijodiy faoliyatida milliy ohanglarni o‘zgacha jarangini yarata olgan bastakorlardan yana biri xalq ardog‘idagi san‘atkor, mohir sozanda, zukko askiyachi va bastakor G‘anijon Toshmatovdir. Uning “Ey begim”, “Istadiim” (Navoiy g‘azallari), “Qora zulfing”, “Guljamol” (Bobur so‘zi), “Hay-hay na sanam” (Mashrab she‘ri), “Olmaydi xabar”, “Yurtim mehri” (V. Sa‘dulla so‘zi), “Mubtaloman” (Y. Mamatjonov she‘ri), “Istar” (S. Abdulla she‘ri) kabi qo‘shiq va ashulalari o‘zining xushohangligi, mavzularning rang-barangligi bilan mashhur hofizlar repertuaridan munosib o‘rin olib, tinglovchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

G‘.Toshmatov faoliyatining ahamiyatga molik bosqichlaridan biri Uyg‘ur etnografik ansambliga rahbarlik qilgan davri bo‘lib, mazkur yillarda uyg‘ur maqomlarini audiotasmalarga muhrlashda jonbozlik ko‘rsatdi. Shuningdek, shu ansambl ijrosi uchun “Uyg‘ur kizleri”, “Ko‘zlaring”, “Saratonda xatlar yozib” nomli qo‘shiqlarni bastalaydi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘n besh asrlik uzoq tarixga ega o‘zbek bastakorlik ijodiyoti shu kunga qadar bir necha rivojlanish bosqichlarini boshdan o‘tkazdi. Ular ichida XX asr bastakorligi xalqchilik tamoyillari, mumtoz musiqa unumli foydalangan holda yangi uslubiy yo‘nalishlar vujudga kelgani, shuningdek, davrning siyosiy-mafkuraviy jarayonlari hamda xalqning his-tuyg‘u, orzu-umidlarini tarannum etuvchi qo‘shiq va ashulalar bilan alohida ahamiyat kasb etadi. 1950–1970-yillarda To‘xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatov kabi hassos bastakorlar xalq musiqa merosiga chuqur tayangan holda xalq kuy va qo‘shiqlaridan, mumtoz maqom yo‘llari kuylari va ashulalaridan, zarb-usullaridan, shakllari-yu uslublaridan unumli foydalanib, shu bilan birga, o‘z “mualliflik” yondashuvi asosida o‘zbek musiqa xazinasini noyob durdona asarlar bilan boyitdi. T. Jalilovning “Paxta – shon-sharafimiz”, “Ey, hur Vatanim”, “Aziz Vatan”, S. Kalonov “Vatan sevgisi”, “Vatan taronasi”, K. Jabborovning “Diyorimsan”, “Ozoda o‘lkam”, N. Hasanovning “Ozod Vatan”, “Bor bo‘lsin tinchlik” va boshqalar juda mashhur bo‘lib ketgan. O‘zbekiston radio va televideniyesi havo to‘lqinlari, respubliklararo o‘tkazilgan madaniy-musiqiy tadbirlar orqali esa bu qo‘shiqlarning ayrimlari uzoq xorijiy mamlakatlarga ham chiqib qanot yozgan. Bularning barchasi, keyingi davr bastakorlar uchun namuna vazifasini o‘tadi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Mehnat va turmush” jurnali, 1971, 7-son.
2. Yunusov R. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. Musiqa ijodiyoti masalalari, I to‘plam. “Qatortol – Kamolot”, Toshkent, 1997.
3. G‘ofurbekova X. Bastakor Saidjon Kalonov. // Musiqa ijodiyoti masalalari, I to‘plam. “Qatortol Kamolot”, Toshkent, 1997.
4. Jabborov A. Musiqali drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. “G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”, Toshkent, 2000.
5. G‘ofurbekova X. Bastakor Komiljon Jabborov. Musiqa ijodiyoti masalalari, I to‘plam. “Qatortol Kamolot”, Toshkent, 1997.
6. Yunusov R. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. Musiqa ijodiyoti masalalari, I to‘plam. “Qatortol – Kamolot”, Toshkent, 1997.

7.G'ofurbekov T. Bastakorlik ijodiyoti: tarixi, tahlili, taqdiri. "Muharrir" nashriyoti, Toshkent, 2019.